

O‘QUVCHILAR TARBIYASIDA OILANING O‘RNI

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

Nukus davlat pedagogika instituti

Xaytboyeva Maftuna Shomurod qizi

Shaxsning kamoloti uning inson sifatida uning kelajakka, hayotga, turmush va mehnatga, kelajakda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan munosabati asosan vatan ichidagi kichik vatan bo‘lmish oilada shakllanadi. Oila jamiyatning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Darhaqiqat oila, ayniqsa o‘zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Har bir insonda vatan tushunchasi ilk bor o‘sib kelayotgan yosh go‘dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri hayotiy faoliyati davomida rivojlanadi.

Vatanimizning kelajagi bo‘lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta’kidlanganidek: “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetganga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”. Oila jamiyat hayotini olg‘a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib, kelajak avlodni tarbiyalab yetishtirishga mas’ul bo‘lgan muhim boshlang‘ich guruhdir. Bolaga ilk tarbiyani ota-ona beradi. Ulardan o‘rnak olib o‘sib ulg‘ayishadi. Undan keyin esa maktabgacha ta’lim va maktabda yosh avlodga ta’lim bilan birga tarbiya ham berib boriladi. Bola maktabgacha davrda ham, maktabda o‘qish davrida ham asosan oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Tarbiya haqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shunday gaplari bor: "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.". Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan uning mustahkamligi tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim. Shuni unutmaslik lozimki farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvafaqiyatli bo'lishi mumkin. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha yutuqlar, tajribalar almashishi, ota –onalarni tarbiyaviy ishlarga ham jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va ma'suliyatlarini chuqur anglashlariga bog'liqdir. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik reja, bolaning kitob o'qishga qiziqishi, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muhim muvafaqiyat garovidir. Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi. U tajang serjahl, qo'pol bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlar ko'p bo'ladi, o'qituvchi oqilona yo'l topishi kerak, maktab, oila hamkorligini ko'proq yo'lga qo'yish kerak. Sinf rahbarlari tomonidan sinf ota onalar qo'mitasi tashkil qilinadi. Ularning birgalikdagi ish mazmuni Nizomda belgilangan. Maktab, oila, jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishda sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari muhimdir. Masalan sinf rahbari har bir oilaga kirib borishi, ota-onalar bilan birgalikda chora

tadbirlarni belgilashlari, o'quvhilar ko'z oldida ota-onalar bilan suhbat olib borishlari ularning tarbiyasiga katta ta'sir ko'rstadi. Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota –onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Pedagogik olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o'zining barcha ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa.

2. O'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil eta olsalar.

3. Xalq ta'limi bo'limi va muassasalar tashkilotchilari onalarni tarbiyaviy jarayonlarga jalb eta olsalar.

"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bolib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bolib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz",-deya ishonch bildirgan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytish mumkinki hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir biriga yelkadosh bo'lishini ozaro odoblarini bir biriga bo'lgan mehribonliklarini ko'rgan farzandlar ulardan o'rnak oladilar va ularga o'xshashga harakat qiladilar. O'sib kelayotgan yosh avlodni axloqan pok, ma'naviy yetuk, mehnatsevar qilib tarbiyalash barcha tadbirlardan unumli foyalanish kerak. Jamoatchilik va oila hamkorligini takomillashtirib borish kerak. Agar oilada hamkorlik, o'zaro yordam, bir biriga ishonch, hurmat bo'lsa, bunday oilada rostgo'y, mehribon, samimiy,

barchaga yordam berishga tayyor bo'lgan inson kamol topadi. Buning uchun yurtimizda yoshlarga e'tibor katta, barcha sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan aabiyotlar

1. R.A.Mavlanova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarov, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika.-T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet
2. Pedagogika Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /O'.M.Asqarova, M.Hayitboyev, M.S.Nishonov. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,- T.: "Talqin", 2008.-288 b